

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSTETI

XALIMOV JAVLONBEK SHAXRIYOROVICH

**MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA
JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”
(iqtisodiyot fanlari)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Urganch – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of
Philosophy (PhD) on economical sciences**

**MECHANISM FOR IMPROVING DIGITAL TRANSFORMATION
PROCESSES IN THE REGIONAL INDUSTRY**

XALIMOV JAVLONBEK SHAXRIYOROVICH

**Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish
mexanizmi..... 3**

ХАЛИМОВ ДЖАВЛОНБЕК ШАХРИЭРОВИЧ

**Механизм совершенствования процессов цифровой трансформации в
промышленности региона..... 31**

KHALIMOV JAVLONBEK SHAKHRIEROVICH

**Mechanism for improving digital transformation processes in the regional
industry..... 61**

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.08.2020.I.55.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSTETI

XALIMOV JAVLONBEK SHAXRIYOROVICH

MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA
JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”
(iqtisodiyot fanlari)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Urganch – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt2041 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinov Xudoyor Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro'zmetov Baxtiyor
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Norqobilov Nusratillo Norsaitovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,
PhD

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/28.08.2020.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ soat ____: ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2023-yil "___" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Abdullaev I.S.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d, professor

Raximov T.J.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD

Matyakubov U.R.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (P lissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzucining dolzarbi va zarurati. Jahonda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti raqamli integratsiyalashuvi va iqtisodiyot tarmoqlarining salohiyatidan foydalanish va uni raqamli boshqarish samaraliligi sezilarli darajada oshirishni taqozo etmoqda. Mintaqada sanoat tarmoqlarida qo'shimcha raqobat ustunligini qo'lga kiritish va bozorda yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida nafaqat texnologiyalarni, balki sanoatda raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda. "Mintaqa sanoati sohasi hozirda infratuzilma ob'ektlari va sanoat loyihalaridan tijorat ishlab chiqarishi va realizatsiya qilish xamda resurslarni tejash davrini boshidan kechirmoqda. Bu esa yuqori sur'atdagi urbanizatsiyalashuv bilan bog'liq. Jumladan, dunyo miqyosida 2021 – 2025-yillar oralig'ida sanoatda global xarajatlar taxminan 97,8 trillion dollarga o'sishi kutilmoqda"¹. Bu esa beqaror ish sharoitida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini munosib baholash va samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyat darajasini o'rganish va uni baholashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mintaqa sanoat korxonalarining raqamli transformatsiya jarayonlarini shakllantirish, uni miqdoriy baholash, bu boradagi turli-tuman nazariy va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, mintaqa sanoat korxonalarining raqamlashtirilgan faoliyatini tashkil etish va mazkur sanoat korxonalarining iqtisodiy faoliyati natijasida umumiy manfaatning ortib borishini tadqiq etish, iqtisodiy salohiyatini baholash va boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, mintaqa sanoat korxonalarining raqobat muhitini yanada yaxshilash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida hududlar sanoati rivojlanishi, bu sohada texnologik va innovasion siyosatni amalga oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda "...sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, shahar va viloyatlarda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish"² hamda "hududlarda "drayver" bo'lgan sohalarni rivojlantirish"³ga, xususan, "mahalliy sanoatni rivojlantirish bo'yicha mutlaqo yangi "vertikal" tizim joriy etish"⁴ga erishish vazifalari belgilangan. Bunday vazifalarni samarali hal etishda sanoat tarmoqlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mamlakat va uning hududlarida tuzulmasini rivojlantirish hamda ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha

¹https://www.researchgate.net/publication/340034210_Monitoring_Indicator_System_for_Digital_Transformation_and_Statistical_Research_of_Sectors_in_China/link/5e73f0ec299bf1c76a1ff5c8/download

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-son «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5449564>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 3-avgustdagi joriy yilning birinchi yarmidagi iqtisodiy tahlil natijalari bo'yicha videoselekter yig'ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/4525>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 30-apreldagi hududlarda mahalliy sanoatni rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha videoselekter yig'ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/4323>

imkoniyatlarni aniqlash yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekistan Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 2-sentyabrdagi PQ-3927-son “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-maydagi 421-sonli “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish hisobidan aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda mamlakatda raqamli iqtisodiy tizimga o‘tishni rag‘batlantirish va jadallashtirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirishda AKT dan foydalanib rivojlantirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari hamda asosiy yo‘nalishlari xorijiy mamlakat olimlari J.Bogan, R.Boshma, J.K.Gelbreyt, H.Kanfei, F.Perru, M.Porter, R.Rutten, A.Smit⁵, tuzulmasilarning hududiy sanoat ishlab chiqarishga ta’siri esa G.M.Xilxorst, H.Chaoran, I.CHjou, Y.A.Shumpeter, M.J.Enrayt tomonidan keng o‘rganilgan⁶.

Mintaqa sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy o‘lishga ta’siri masalalariga F.V.Vazagova, V.I.Zinchenko, V.V.Akberdina, Z.X.Kilchukov, N.Kolosovskiy⁷, innovasion rivojlanishning hududiy sanoat majmuasini barqaror

⁵ Boran J. The role of industry-specific, occupation-specific, and location-specific knowledge in the growth and survival of new firms/PNAS//December 11, 2018. – 115 s.; Boschma R. How do regions diversify time? Industry relatedness and the development of new growth paths in regions. 2011; Gelbreyt J.K. Новое индустриальное общество. Избранное. – М.: “Eksmo”, 2008. – 1200 s.; Zhou Yi, Canfei He. Regional industrial development in a dual-core industry space in China: The role of the missing service. Habitat International, Volume 94, 2019. R. 2-12.; Perru F. Экономическое пространство: теория и приложения // Пространственная экономика. №2. 2007 – S. 124-134; Porter, M (2003). The economic performance of regions. Regional studies, 37(6-7). R. 549-578; Rutten R. Knowledge and Innovation in Regional Industry: An Entrepreneurial Coalition (Routledge Studies in Global Competition Book 19) 1st Edition, Kindle Edition, 2019. R. 35-45.; Smit A. Исследование о природе и причинах ричатка народов. Книга 1–3: – Москва: “Direkt-Media”, 2014.– 442 s.

⁶ Hilhorst Jos G.M., Chaoran Hu. Industrialization and Local / Regional Development Revisited // Development and Change. – 2018. – Vol. – N 4. – P. 139–165; Shumpeter Y.A. История экономического анализа: в 3 т. – СПб.: Экономическая школа, 2003 – 494 s.; Enright M. J. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. - Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program, University of Hong

⁷ Акбердина В.В. Промышленность индустриального региона. Потенциал, приоритеты и динамика экономического и технологического развития. - Екатеринбург: UrO RAN, 2014. – 632 s.; Bazaгova F.B., Kilchukov

rivojlanishidagi ahamiyatiga S.N.YAshin, O.A.Romanova, M.I.Maslennikov, S.N.Rastvorseva, A.I.Tatarkin,⁸ singari MDH davlatlari olimlari o'z ilmiy tadqiqot ishlarida alohida e'tibor qaratganlar.

O'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlaridam ushbu muammoni o'rganishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga sanoat ishlab chiqarishining ta'siri A.G.Abdullayev, M.F.Maxmudov, SH.X.Otaboev va N.Xolmatovning ilmiy ishlarida yoritilgan⁹. SHuningdek, mamlakat mintaqalarida sanoatni rivojlantirish jarayonlarining ahamiyati borasidagi ilmiy yondashuvlar SH.Zaynutdinov, G.Xasanova, Z.G'aibnazarovalarning ishlarida o'z aksini topgan¹⁰. Mazkur ilmiy izlanishlar O'zbekiston mintaqalarida sanoatning rivojlanish xususiyatlarini o'rganishga sezilarli hissa qo'shgan. Ammo, iqtisodiyotdagi hozirgi global tendensiyalar mintaqa sanoatmajmuasini rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. Jumladan, mintaqa sanoatida raqamli transformatsiyalash jarayonlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini raqamlashtirish holatini baholash va "o'sish nuqta"lariga alohida e'tibor qaratish zarurati mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlashda asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy- tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928323 "Mintaqalar eksport salohiyatini oshirishda investitsiya dasturlaridan foydalanish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. mintaqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy va uning raqamlashtirish holatini indikativ rejalashtirish hamda mintaqa sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

3.X. Роль других промышленных комплексов в реализации новой модели развития экономики. // Фундаментальные исследования. 2015. – № 2-2. – С. 343-346; Зинченко В.И. Региональная система мониторинга инноваций. // Инновации. 2009. – № 1. – С. 27.; Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – Москва: "Мысль", 1969. – 335 с.

⁸ Масленников М.И. Технологические инновации и их влияние на экономику. Инновационный потенциал региона. // Экономика региона. 2017. – Т.13. вып.4. – С.1221-1235; Растворсева С.Н. Инновационный путь изменения траектории предшествующего развития экономики региона. // Экономика региона. 2020. – Т.16, вып.1 – С. 28-42; Романова О.А. Приоритеты промышленной политики России в контексте вызовов четвертой промышленной революции. Ч. 2. // Экономика региона. - 2018. - Т. 14, вып. 3. – С. 806-819; Татаркин А.И., Романова О.А., Яшин С.Н. Оценка уровня устойчивости инновационного развития регионального промышленного сектора. Инновации №12 (242), 2018. – С. 69-76.

⁹ Abdullayev A.G. Oziq-ovqat sanoati rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida); geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 21 b.; Mahmudov M.F. Features of effective useage of industrial potential in Kashkadarya region. Nauchniye issledovaniY. №2 (28) (2019). R. 9-13; Otaboev SH. X. Hududni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va ularni klasterlar tashkil etish orqali amalga oshirish (Farg'ona viloyati misolida) // Iqtisod va moliya (O'zbekiston). – 2020. – №. 4 (136); Xolmatov N. O'zbekistonda sanoatlashuv jarayonining omillari, shart-sharoitlari va istiqbollari: monografiY. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020. – 242 b.

¹⁰ Zaynutdinov SH.N. Innovasion salohiyatni oshirish strategiyasi. // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №1, sentabr, 2011. – 24 b.; Xasanova G. Sanoat korxonalari innovasiya faoliyati samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – 21 b.; G'aibnazarova Z. Innovasion investitsiyalashtirish samadorligini oshirishning nazariy asoslari: iqtisodiyot fanlari ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T., 2012. - 24 b.

Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish orqali nazariy asoslarini ishlab chiqish;

Mintaqa sanoatini transformatsiyalashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash siyosatining qo'llanilishi;

Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirishning xorij tajribalarini tadqiq etish hamda ularni O'zbekiston sharoitiga mos keladiganlarini qo'llashni taklif etish;

Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarini ishlab chiqish;

Mintaqa sanoatini rivojlantirishda ekologik ziddiyatlarni boshqarish mexanizmini ishlab chiqish;

Mintaqa sanoatini transformatsiyalash jarayonini imitatsion modellashtirish jarayonlarini nazariy jixatlarini yoritish;

Mintaqa sanoatini transformatsiya jarayonida katta ma'lumotlar bazasini yaratish;

Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiyalashda ta'sir etuvchi omillar va istiqboldagi prognoz variantlarini ishlab chiqish;

Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati mintaqa sanoat majmualari.

Tadqiqot predmetini Qashqadaryo viloyati mintaqa sanoat majmualarini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiy fikrlash, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, tahlil va sintez, qiyosiy va omilli tahlil, jadval va grafik, ekonometrik va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqa sanoati transformatsiyalash jarayonlarini takomillashtirishda "transformatsiyalash jarayonlari mexanizmi", "iqtisodiy mexanizm", "moliyaviy mexanizm", "boshqaruv mexanizmi" tushunchalari takomillashtirilgan;

mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida sinergiya samaradorligini oshirishda hududlarda sanoat tarmoqlarining hajmi, narxi va sotish hajmini oshirishga yo'naltirilgan jarayonning imitatsion modellashtirish takomillashtirilgan;

mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda AHP (analytic hierarchy process) yuqori darajada izchillik asosida sanoat mahsulotlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun tarmoqlardagi o'zgarishlarni sinxronizatsiya qilishning sxemasi taklif qilingan;

mintaqa sanoatida ishlab chiqarish subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini indikativ rejalashtirishda raqamli transformatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishni ifodalovchi mezonlarning 2027-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirishni asosiy yo'nalishlari takomillashtirilgan;

Mintaqa sanoatini transformatsiyalashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash siyosatining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mintaqa sanoatini bosqichma-bosqich raqamli transformatsiya jarayonida

ma'lumotlar bazasini yaratish va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan institusional tizim ishlab chiqilgan;

mintaqada sanoat tuzilmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni baholashning uslubiy yondashuvi takomillashtirilgan;

sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishining 2022-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan usul va nazariy yondashuvlar hamda axborot bazasi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining rasmiy ma'lumotlaridan olinganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mintaqa sanoatini innovasion rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari hamda yo'nalishlarini ishlab chiqish, hududlar sanoatini innovasion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududiy sanoatni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish, hududlarning sanoat ishlab chiqarishida ustunliklarini hisobga olgan holda mintaqaviy rivojlanish dasturlari samaradorligini oshirish, hududlarning tuman va shaharlari sanoat tarmoqlari innovasion salohiyatini baholash va innovatsion omildan samarali foydalanish istiqbollarini belgilashda hamda oliy ta'lim tizimida "Mintaqaviy iqtisodiyot", "O'zbekiston iqtisodiyoti", "Innovatsion iqtisodiyot" va "Xorijiy mamlakatlarda innovatsion taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot" fanlaridan o'quv materiallarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mintaqa sanoatini transformatsiya jarayonlarini AKT dan foydalanib takomillashtirish, uning tuzilmasini asosiy yo'nalishlarini o'ziga xos ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqa sanoati transformatsiyalash jarayonlarini takomillashtirishda "transformatsiyalash jarayonlari mexanizmi", "iqtisodiy mexanizm", "moliyaviy mexanizm", "boshqaruv mexanizmi" tushunchalarini takomillashtirish bo'yicha taklifi "Ekonometrika asoslari" o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. (Muxiddinov X.S., Xatamov O.Q, Raximov A.N. Ekonometrika asoslari" o'quv qo'llanmasi. Qarshi: "Intellekt" nashriyoti, 2021-287 bet).

mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida sinergiya samaradorligini oshirishda hududlarda sanoat tarmoqlarining hajmi, narxi va sotish hajmini oshirishga yo'naltirilgan jarayonning imitatsion modellash tirish natijalaridan Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 27-

oktyabrdagi “Mintaqa sanoat sektor tarmoqlarni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 478-4-0-T/62-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 28-apreldagi 11/03-15-4990-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mintaqa sanoati ishlab chiqarishini rivojlantirish bo‘yicha samaradorlikni oshirishga imkoniyat yaratilgan;

mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda AHP (analytic hierarchy process) yuqori darajada izchillik asosida sanoat mahsulotlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun tarmoqlardagi o‘zgarishlarni sinxronizatsiya qilishning sxemasi bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 27-oktyabrdagi “Mintaqa sanoat sektor tarmoqlarni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 478-4-0-T/62-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 28-apreldagi 11/03-15-4990-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, mintaqa sanoat mahsulotlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun sanoat korxonalari hamda tegishli tarmoqlardagi samaradorlikni oshirish imkoniyati kengaytirilgan;

mintaqa sanoati transformatsiyalashda, ekologik baholash va sanoat resurslardan samarali foydalanishni AT dasturiy paketlaridan foydalanib uzoq muddatga mo‘ljallangan prognoz variantlari bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 27-oktyabrdagi “Mintaqa sanoat sektor tarmoqlarni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 478-4-0-T/62-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 28-apreldagi №11/03-15-4990 son ma‘lumotnomasi). Olingan natijada asosida mintaqa sanoat subektlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi 2022-yilga nisbatan 1,03 borib o‘ssishi, 2027-yilga borib esa 1,38 barobarga oshishning qo‘shimcha imkoniyatlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bir qator ilmiy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlikdissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 124 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Mintaqada sanoatda raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy - uslubiy va nazariy ahamiyati” deb nomlangan birinchi bobida Mintaqa sanoatda raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirishni ilmiy-uslubiy va siyosiy ahamiyati, Mintaqa sanoatini transformatsiyalashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash siyosati xamda Mintaqa sanoatini transformatsiyalashning xorij tajribalari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatib utilgan.

Mintaqa sanoatining tuzulmasi salohiyati ushbu mintaqaning aniq maqsadga yo‘naltirilgan va tashqi muhit bilan doimiy aloqada bo‘lgan o‘zaro bog‘liq elementlar to‘plamini rivojlantirish uchun faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘lgan omillardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatidir. Tadqiqotda mintaqa sanoati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan, mexanizmlar va ularni tashkil etuvchi dastaklar tizimlashtirilgan.

M.Porter o‘zining tadqiqotlarida “sanoat tuzilmalarini rivojlantirish hamda sanoat korxonalarida muntazam ravishda, ixtirolar yaratish va joriy etish jarayonlari mehnat unumdorligini yuqori darajada saqlab turishga ta’sir ko‘rsatgan holda mintaqa sanoatining innovasion rivojlanishiga olib keladi”¹¹, deb izohlangan. M.Enrayt esa, “mintaqa sanoatini rivojlantirishda tarixiy shart-sharoit, ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari muhim ahamiyatga ega”¹² ekanligini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, tadqiqotlar natijasida ko‘pgina xorij davlatlarida (AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Fransiya, Hindiston, Rossiya) mintaqa sanoatini rivojlantirishda, xususan, innovasion omilning ta’sirini kuchaytirishda davlatning roli va moliyaviy ko‘magi hamda soliq imtiyozlari alohida o‘rin tutganligi aniqlangan. Mahalliy iqtisodchilar tadqiqotlarida¹³ sanoatning muhim tarmoqlari hamda sanoat majmuasini rivojlantirishda qulay makro, mezo va mikroiqtisodiy muhitning zarurati yoritib berilgan. Sanoatni rivojlantirishda tarkibiy o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratish zarurati, mintaqa sanoati tuzilmasini rivojlantirishda mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari, geografik joylashuv omillari muhim ekanligi ko‘rsatilgan¹⁴,

¹¹ O‘zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovasion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish. // O‘zFA, Iqtisodiyot instituti; i.f.d., prof. A.F.Rasulev tahriri ostida. – T.: “Konsauditinform-nashr”, 2011. – 72-b.

¹² Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game // World link. N 5July/N.4, August

¹³ Фазлиддинович М. М. Феатурес оф эффестиве усеаге оф индустриал потенциал ин Кашкадаря регион. // Научные исследования. – 2019. – №. 2 (28).; Олимов М. Худудлар иктисодий хавфсизлигини таъминлашда sanoat ishlab chiqarishining ahamiyati. // Архив научных исследований. – 2020. – №. 21.;

Салимов Б. Худудлар иктисодиётини ривожлантиришда кичик sanoat зоналарининг (КСЗ) ўрни ва ахамияти.// Архив научных исследований. – 2020. – №. 25.

¹⁴ Mamajonov D.G. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat tarmog‘ining boshqaruv-samaradorligini oshirish

J.K.Ramoning fikriga ko'ra, mintaqada sanoat siyosatini tashkil etishning eng yaxshi varianti B2C, B2B va B2G kombinasiyasidan foydalanishdir, bu mijozlarni diversifikatsiya qilish bilan bog'liq xavflarni minimallashtiradi, shuningdek, xarajatlarni optimallashtiradi, ularni turli yo'nalishlarda samarali taqsimlaydi¹⁵.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar asosida mintaqa sanoat tuzilmalarini tarmoqlashtirishni nazarda tutuvchi sanoatning institusional tuzilmasini takomillashtirish va sanoatda tizimli o'zgarishlar sharti eskirgan ishlab chiqarishni qisqartirishdir, bu esa yangi zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash orqali, raqamlashtirishdir.

Hozirgi bosqichda mintaqa sanoat tuzilmasini texnologik holati sanoatning raqamlashtirish faoliyati, ishlab chiqarishning texnologik darajasi, raqamli texnologik sezuvchanlik va boshqalar bo'yicha dunyoning etakchi davlatlari, shuningdek mintaqaviy darajada texnologik rivojlanishni boshqarish uchun uslubiy vositalarni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi dolzarb bo'lib, mintaqa sanoat tuzilmasi faoliyatini tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etishga yordam beradi.

Xalqaro tajribalardan ma'lumki, sanoatni raqamlashtirishni shakllantirish bir nechta yo'llar orqali amalga oshiriladi.

Birinchi usuli ishtirokchilarning tashabbusiga ko'ra, davlat organlarining qarorlari bo'yicha hamda hukumatlararo bitimlarga ko'ra iqtisodiy-huquqiy vakolatlar hamda tegishli yuridik va xo'jalik majburiyatlari bilan yangidan tashkil etilgan tashkiliy tuzilmani o'zida ifodalovchi aksionerlik jamiyatini tuzish va alohida ishtirokchilarning kapitallarini ixtiyoriy birlashtirish usulidir, bu birmuncha keng tarqalgan usul hisoblanadi.

Ikkinchi usul, tashkil etilayotgan sanoat tuzilmasini axborotlashgan tizimni, ixtiyoriy ravishda boshqarishga berishi hisoblanadi.


Uchinchi usul esa, guruh ishtirokchilaridan biri boshqa korxona va tashkilotlarning aksiya paketlarini egallashidan iborat bo'lib, buning natijasida mintaqa sanoat tuzilmasini ishtirokchilari shakllanadi.

Ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlar darajasini asoslash milliy iqtisodiyot rivojlanishining muqobil ssenariyalarini, shu jumladan, makroiqtisodiy tartibga solish va iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlarni, shuningdek asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash va taxminiy baholash variantlarini ishlab chiqish uchun sanoat tuzilmasini raqamlashtirish jarayoni talab etiladi.

Buning uchun mintaqa sanoatini mazmun va mohiyati jihatidan raqamli transformatsiyalashni siyosiy va zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

yo'llari. Arxiv nauchnix issledovaniy. 1, 27 (iyul. 2020). – S. 9-9.

¹⁵ Рамо, Дж. К. Седмое чувство. Как прогнозировать и управлять изменениями в цифровую эпоху / Дж. К. Рамо. – М. : Изд-во: «Эксмо», 2017. – 336 с.



1-rasm. Raqobatbardosh siyosiy ustunlikka erishishga imkon beruvchi transformatsiya jarayonlari modeli¹⁶

Iqtisodiy adabiyotlarda “mexanizmi” tushunchasi turli iboralar bilan talqin qilinadi. Sanoat korxonalari faoliyatini tavsiflashda “iqtisodiy mexanizm”, “moliyaviy mexanizm”, “boshqaruv mexanizmi”, “xo‘jalik mexanizmi” va boshqa tushunchalar ishlatiladi.

Ushbu iboralarda mexanizm, sanoat korxonasining holatini va asosiy elementlarini majmuiy tuzilishi sifatida tushuniladi.

- “moliyaviy mexanizmi” (moliyaviy richag va vositalar majmuidan iborat)¹⁷;
- “boshqaruv mexanizmi” (boshqaruv obyekti faoliyatining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar va boshqaruv tizimining tarkibiy qismi)¹⁸.


Ushbu tadqiqotda mintaqqa sanoatida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqildi.

Fikrimizcha mintaqada sanoat korxonalarining ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy omillari sifatida transformatsiyalash jarayonlari mexanizmini takomillashtirish uchun har yili ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish hamda raqamli axborot texnologiyalarini joriy qilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁷ Райзберг, Б.А. Современный экономический словарь. - 6-е изд., перераб. и доп. / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. - М.: ИНФРА-М, 2017.- 512 с.

¹⁸ Кусенко, Е.И. Организационно-экономический механизм устойчивого развития региона: монография. – Оренбург: Литрес, 2017. – 224с.




2-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintqa sanoatini raqamlashtirishda asosiy tendensiyalar

Bizning fikrimizcha sanoat tuzilmasining vazifalari - bu boshqarish faoliyatining nisbatan erkin (mustaqil), ixtisoslashtirilgan va alohida qismidir. Bunday boshqarish vazifalari bilan hisoblashmoq uchun aniq ifodalangan mazmun kerak. Bu mazmunni joriy qilish jarayonini ishlab chiqish va ma'lum tuzilishini alohida ajralgan ko'rinishida tasvirlash lozim.

Raqamli iqtisodiyot sharoitda ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy muhitini yaxshilash va sanoat mahsulotlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun sanoat korxonalari hamda tegishli tarmoqlardagi o'zgarishlarni sinxronizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini asoslashga imkon beruvchi transformatsiyalash jarayonlari mexanizmini ishlab chiqish uchun axborot modellar asosiy tendensiyalarini taklif qilamiz (2-rasm).

Mintaqa sanoatida iqtisodiy axborotni ximoyalash va xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy va huquqiy muammolariga, standartlar, bitimlar, kodekslar, kelishuvlar, shartnomalar, qonunlar, qarorlar, ustavlar, nizomlar, yo'riqnomalar kabi barcha xalqaro va milliy meyoriy hujjatlarga asoslangan sanoat xavfsizli siyosati hujjatini o'z ichiga oladi va mintqa sanoat tarmoqlarida ximoyalash bilan bog'liq barcha munosabatlarni reglamentlaydi.



3-rasm Mintaqa sanoat tuzilmasini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish

Hozirda raqamli texnologiyalar faol o'zlashtirilayotganiga qaramay, ularning afzalliklari va kamchiliklari hali etarlicha o'rganilmagan. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida tajriba va tuzulmalarga tayyor bo'lgan ko'plab texnologiyalar mavjud. Ushbu texnologiyalardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Blokcheyn turli aktivlarni ishonchli hisobga olish uchun mo'ljallangan ko'p funksional va ko'p darajali axborot texnologiyasidir. Shuningdek ma'lumotlar bloklari zanjiri bo'lib, uning hajmi doimiy ravishda o'sib boradi. Blokcheyn texnologiyasining raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini belgilashda unga asosan ishlab chiqilgan biznes modellarda texnologiyaning rolini ifodalash bilan tushuntirish mumkin. 3-rasmda rivojlangan mintaqalarning iqtisodiyotida blokchain texnologiyalarining qanday darajada foydalanishi keltirib o'tilgan.

Shuningdek bulutli texnologiyalardan ham hozirda iqtisodiyotning barcha yo'nalishlarida qo'llanilib kelmoqda, jumladan sanoat sektorlarini ish jarayonini yuritishni osonlashtiradigan ya'ni ma'lumotlarni masofadan saqlash va qayta ishlash eng muhim texnologiyalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalar pulni sezilarli darajada tejashga yordam beradi¹⁹. Bunday texnologiyalarning afzalliklari deb quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin²⁰.

¹⁹ Internet of things (IoT) in Russia. Technology of the future, available now. 2017. [Electronic resource]. – Mode of access: <https://www.pwc.ru/publications/IoT.html>.

²⁰ Вертакова Ю.В. Управление бизнес-процессами интегрированной структуры на принципах совместного использования цифровых технологий / Вертакова Ю.В., Т.А. Головина, А.В. Полянин // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономическая наука. 2019. Т. 12. № 4. С. 32-43.

Foydalanish qulayligi. Boshqaruvchi dunyoning istalgan nuqtasidan faqat kompyuter (hatto smartfon) va Internet telekommunikasiya tarmog'iga kirish imkoniga ega bo'lgan barcha jarayonlarni boshqarishi mumkin.

Axborotni saqlash. Xizmat ko'rsatuvchi provayder ma'lumotni himoya qilish uchun ko'proq imkoniyatlarga va u aynan shu narsaga ixtisoslashgan. Iqtisodiy samara va xizmat ko'rsatishning yuqori sifati. Bundan tashqari, ushbu sohadagi raqobat tizim sifatini yaxshilashni rag'batlantiradi, chunki mijoz uchun nafaqat olish, balki saqlab qolish ham muhimdir.

Qiyosiy tahlillar asosida bugungi kunda sanoat korxonalar tuzulmalari tomonidan raqamli iqtisodiyot ta'siri ostida ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali diversifikasiya qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda sanoat korxonalarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash va boshqaruv tizimiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini samarali qo'llash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududlarda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga hamda jahon bozorida munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.


1-Jadval

Axborot texnologiyalarining mintaqa sanoat tuzilmasi iqtisodiy barqarorligiga ta'siri

Mulliflar	Sanoatga berilgan ta'riflar	Tadqiq etilgan asosiy tushunchalar
Vikipediya, ochiq ensiklopediya	Sanoat, industriya — xalq xo'jaligining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan etakchi tarmog'i; Sanoatning o'zi uchun hamda xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, xom ashyo, yoqilg'i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yohoch tayyorlash va xokozolar	Sanoatda yoki qishloq xo'jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash bilan band korxonalar (fabrikalar, zavodlar, elektrostansiyalar, shaxtalar, konlar va boshqalar) majmuidir.
Qadirov Abdumalik Matkarimovich (Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish ("Andijonneft" aj misolida)) nomli avtoreferati	Tadqiqotchi tomonidan neft-gaz sanoatining o'ziga xos rivojlanishi va faoliyat yuritishini inobatga olgan holda neft-gaz sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligi yuzasidan mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan.	Neft-gaz sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligi - bu korxonaning rentabelligini va barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi hamda hozirgi zamonda va istiqbolda tashqi va ichki omillarning amal qilishi to'xtatilgandan keyin dastlabki muvozanatlangan holatni tiklash yoki yangisini qabul qilishga imkon beradigan iqtisodiy parametrlar ko'rsatkichlarining muayyan darajasini ushlab turish qobiliyatidir

Mintaqa sanoati institusional tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo‘ladi:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperasiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun xalq xo‘jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- sanoat tarmog‘ining “A“ guruhi bilan “B“ guruhi o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqadorligini;
- ijtimoiy mehnat unumdorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;
- mehnatkashlarning moddiy faravonligi va madaniy darajasi o‘sganligini aniqlash mumkin bo‘ladi.




4-rasm. Mintaqa sanoati transformatsiya jarayoni modeli

Mintaqa sanoatini axborotlashtirish va himoyalash xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini tashkil qilish, mutaxassislar va barcha ishchilarning asosiy vazifa va majburiyatidan biri hisoblanadi. Ushbu holatdan kelib chiqib, ishlab chiqarish

jarayonida raqamli ma'lumotlarni himoyalashda axborot strukturasi aniqlanadi. Sanoat tuzulmasini axborotlashtirish va uning himoyalash shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarining xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holatining garovidir.

Ushbu rasmda transformatsiya jarayoni modelini ko'rib turibmiz. Bu erda, Ideolog-algoritmni ishlab chiqish, amalga oshirish va optimallashtirish jarayonlarini olib boradi. So'ngra transformatsiya qilishga zamin yaratiladi, bu esa barcha subektlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash jarayonini amalga oshiradi. Ishlab chiquvchilar esa qo'llaniladigan texnologiyalarni muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Shuningdek keyingi jarayonda raqamli bozor vujudga keladi. Bu zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarni onlayn bog'lash imkoniyatini yaratadi.



5-rasm. Yangi institusional iqtisodiyot tarmoqlari

Shuningdek mintaqa sanoatini transformatsiyalashda ideologlar, ishlab chiquvchilar va raqamli bozor orqali amalga oshiriladi. Bu esa quyidagi 5-rasmda keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Mintaqa sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini indikativ rejalashtirish”ga bag’ishlangan. Ushbu bob Mintaqa sanoatini innovasion rivojlantirish indikatorlari, Mintaqa sanoatini rivojlantirishda ekologik ziddiyatlarni boshqarish mexanizmi va Mintaqa sanoatini transformatsiyalash jarayonini imitasion modellash keltirilgan.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida mintaqa sanoatini rivojlantirishda olib borayotgan islohotlari natijasida sanoat tuzulmasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari vujudga kelmoqda. Kommunikasiya xizmati, aloqa xizmatiga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Mintaqa sanoatini zamonaviy modellarini yaratish ko‘proq axborotlarni almashish, axborot modellarini takomillashtirishga bog‘liq.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi ko'p jihatdan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilib, uning negizida aholining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlash vazifasi turadi. Bugungi kunda respublika yalpi ichki mahsulotida qariyb 22 % lik ulush sanoat tarmog'i hissasiga to'g'ri kelmoqda²¹.

Mintaqa sanoati institusional tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin bo'ladi:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperasiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun xalq xo'jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- sanoat tarmog'ining "A" guruhi bilan "B" guruhi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqadorligini;
- ijtimoiy mehnat unumdorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining darajasini;

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darjasini baholash jarayonida integral indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Indikatorlarni hisoblab chiqishda taqqoslash bazasi sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin: tahlil qilinadigan har bir davr uchun mintaqaviy o'rtacha va maksimal ko'rsatkichlar; mintaqaning ma'muriy birliklari bo'yicha o'rtacha va maksimal ko'rsatkichlar.

– Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish belgisi bo'yicha indikatorlarni ikkita guruhga bo'lish mumkin:


- ijobiy jarayonlarni yorituvchi indikatorlar.
- salbiy jarayonlarni yorituvchi indikatorlar.

Konseptual, nazariy va amaliy tadqiqotlar, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish bo'yicha qarashlar ko'p sabablarga bog'liq. Birinchidan, iqtisodiy rivojlanishning ilmiy-texnikaviy jihatlarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va iqtisodiyot tomonidan talab qilinmoqda. Sanoatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030-yilga qadar takomillashtirish YAIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YAIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo'lgani kabi 2017-yildagi 33,5 foizdan 2030-yilda 40 foiz oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020-, 2025-, 2030-yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda barcha mamlakatlar o'ziga xos muammolarga duch kelishadi. Birinchidan, mintaqaviy imkoniyatlarni tenglashtirish siyosati hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning to'liq mos kelishiga olib kelmaydi. Davlat mutlaq emas, balki nisbiy tenglikni ta'minlashga urinadi. Ikkinchidan, mintaqaviy siyosat tarkibiy siyosat bilan murakkab o'zaro bog'liqlikka

²¹2005-yildagi O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlari.

ega. Ular bir-birini to'ldirishi ham, bir-biriga zid bo'lishi ham mumkin.




6-rasm. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishi bosqichlari

Agar ko'p tarmoqli ishlab chiqarishga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan mintaqalarni oladigan bo'lsak, iqtisodiyot tarkibini yaxshilash uning rivojlanishiga yordam beradi. Lekin ayrim hududlar tarixan yuzaga kelgan kam ishlab chiqarish sohasiga ega. Fan-texnika taraqqiyoti va sanoatning ikkita shartli guruhga (ilg'or va qaloq tarmoqlarga) ajralishi sharoitida hukumatning ilg'or tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari shunga olib keladiki, ko'plab yangi tarmoqlarga ega bo'lgan mintaqalarda rivojlanish uchun umumiy turtki kuchayadi. Asosan qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan eski tarmoqlarga ega bo'lgan mintaqalarda esa umumiy pasayish, bandlikning qisqarishi, ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi

kuzatiladi.

Tabiiy-ekologik salohiyat, u garchi har doim ham bevosita baholashga daxldor bo'lmasa-da, lekin urning sifati, sotish bozorlaridan uzoq yoki ularga yaqinligi, tabiiy-iqlim sharoitlari, hududning ekologik hajmi kabi tarkibiy qismlar orqali mintaqa xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. SHunga ko'ra, hududiy takror ishlab chiqarish jarayoniga kiritilgan munosabatlarning tabiiy - ekologik tizimi hudud rivojlanishining tabiiy bazisi sifatida mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish va ulardan yovvoyilarcha foydalanishning oldini olish bo'yicha munosabatlar tizimi orqali ifodalanishi mumkin. O'z navbatida bu munosabatlar tizimi hududning tabiiy resurslari turlari bo'yicha (er osti boyliklar, er, suv, hayvonot dunyosi va shu kabilar) yanada aniqlashtirilishi mumkin va bu mintaqaning yagona iqtisodiy hududiga kiritilishi bilan ijtimoiy xo'jalikning bozor munosabatlari asosidagi elementlarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, resurslar, er va kapitalning to'siqsiz harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va miqdoriy hamda qiymat baholariga ega bo'lishi mumkin.

Bu esa mintaqa sanoati tuzulmasining rivojlanishi va kelajak sanoatini shakllanishiga olib keladi. Shu o'rinda biz sanoat tuzulmasini sohalari bo'yicha rivojlantirishning axborot modeli strukturasi va uni AKTda bajariladigan hisoblashlar asosida tahlil qilish, hisoblash tajribasini ko'rib o'tamiz. Hisoblash tajribasining umumiy sxemasi 7-rasmda ko'rsatilgan.



7-rasm. Mintaqa sanoat tuzilmasida axborot modelini hisoblash tajribasining umumiy sxemasi


Matematik model o'rganilayotgan obyekt xususiyatlarini hech qachon o'zida to'la mujassam qilmaydi. Shuningdek mintaqa sanoat tuzilmasini raqamli shakllantirishda ideologlar, raqamli platformalar, ishlab chiquvchilar va raqamli bozor orqali amalga oshiriladi.

Ushbu rasmda raqamli sanoat platformasi modelini ko'rib turibmiz. Bu yerda, Ideolog-algoritmnlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va optimallashtirish jarayonlarini olib boradi. So'ngra raqamli platformalarni ishlab chiqilishiga zamin yaratiladi. Shuningdek keyingi jarayonda raqamli bozor vujudga keladi. Bu zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilarni onlayn bog'lash imkoniyatini yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Mintaqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'nalishlari"ga

bag'ishlangan. Ushbu bobda Mintaqa sanoatini transformatsiya jarayonida katta ma'lumotlar bazasini yaratish va Mintaqa sanoatida raqamli transformatsiyalashda ta'sir etuvchi omillar va prognoz qilish usullari.

Tadqiqotlar natijasida mintaqada sanoatini transformatsiyalash jarayonlariga kuplab yangi zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish mumkin, biz tadqiqotlar natijasida barcha imkoniyatlardan foydalaniladigan va katta ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan "Trade in industrial" portalni yaratishni taklif berdik. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib platformani boshqaruv ierarxiyasi ishlab chiqildi. Bu quyidagi 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Mintaqa sanoatini transformatsiyalash jarayoni immitasiya modeli.

Modelini yaratishda biz quyidagi blok sxemalar bo'yicha ishlarni olib bordik. Bu erda mintaqa sanoati transformatsiyalash jarayonini imitasion modellash tirish yordamida takomillashtirish keltirilgan. Ushbu imitasion model quyidagi bloklardan tashkil qilingan.

Birinchi blok – uchta bo'limdan tashkil qilingan bo'lib, bular **ideolog**-mintaqa sanoat tuzilmasini AKT dan foydalanib takomillashtirishda zaruriy loyihalarni ishlab chiqadi (1.1), **dasturchilar**-ideolog tamonidan ishlab chiqilgan loyihaga binoan sanoat tuzilmasini dasturiy vositasini yaratadi (1.2) va **platforma**-dasturchilar tamonidan yaratilgan dasturiy vosita bo'lib, bunda sanoat tuzilmasini takomillashtirish bo'yicha elektron tizim ishlab chiqilgan (1.3).

Ikkinchi blok – mintaqaning engil sanoati olingan. Bunda qog'oz sanoati (2.1), qurilish materiallar sanoati (2.2), shisha va chinni sanoat (2.3) yog'ochni qayta ishlash sanoati (2.4) v.b sanoatlar olingan.

Uchinchi blok – mintaqaning og'ir sanoati keltirilgan. Mashinasozlik sanoati

(3.1), Qurilish yo‘l kommunal muhandislik sanoati (3.2), metal tuzilmalari va maxsulotlari sanoati (3.3), neft-kimyo sanoati (3.4)v.b sanoatlar keltirilgan.

To‘rtinchi blok - mintaqa sanoat sektorlarini joylashuv manzillarini aniqlash (4.1), tashkilot haqida kerakli ma’lumotlarni olish (4.2), bog‘lanish uchun rikvizitlarni aniqlash (4.3).

